

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-dekabr


2019-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **60,4** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, **28,8** birlikni tashkil qildi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida **18,3** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **51,2** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (42,4%), sanoatda (15,3 %), qurilishda (9,5), yashash va ovqatlanishda (6,6 %), aloqa va axborot (3,6 %), tashish va saqlashda (3,4 %) tashkil etilgan.


2019-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Savdo




Sanoat



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Aloqa va axborot




Tashish va saqlash

2019-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	59 993	74 108	14 115
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	12 071	18 252	6 181
Kichik tadbirkorlik ulushlari:		63,4	60,4	-3,0
YaIM	%			
Sanoat	%	72,9	67,4	-5,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%			
Investitsiya	%	52,3	46,6	-5,7
Qurilish	%	72,0	72,5	0,5
Savdo	%	75,5	70,3	-5,2
Xizmatlar	%	50,0	46,0	-4,0
Yuk tashish	%	69,6	69,2	-0,4
Yuk aylanmasi	%	80,7	63,7	-17,0
Yo'lovchi tashish	%	77,7	78,9	1,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	82,4	84,2	1,8
Eksport	%	24,1	22,7	-1,4
Import	%	60,2	57,8	-2,4



2019-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %



Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar


	yanvar–dekabr 2018 yil	yanvar–dekabr 2019 yil	(+/-)
Toshkent sh.	12 071	18 252	6 181
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	985	2 195	1 210
Bektemir	248	583	335
Yunusobod	1 652	2 121	469
Mirzo Ulug'bek	1 433	1 983	550
Mirobod	1 089	1 661	572
Shayxontohur	1 226	1 672	446
Olmazor	1 208	2 041	833
Sergeli	724	1 048	324
Yakkasaroy	1 083	1 289	206
Yashnobod	949	1 380	431
Chilonzor	1 474	2 279	805

2019-yilning yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'p ulushi Chilonzor tumanida – 2 279 ta, Uchtepa tumanida – 2 195 ta, Yunusobod tumanida – 2 121 ta, Olmazor tumanida bu ko'rsatkich – 2 014 taga yetdi. Mirzo Ulug'bek tumanida – 1 983 ta va Shayxontohur tumanida – 1 672 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida – 583 tani tashkil etgan.





2019-yil yanvar–dekabr oylari holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %



2019-yil yanvar–dekabr holatiga tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Chilonzor tumaniga – 12,5 % to'g'ri keladi. Uchtepa – 12,0 %, Yunusobod – 11,6 %, Olmazor – 11,2 %, Mirzo Ulug'bek – 10,9 %, Shayxontohur – 9,2 %, Mirobod – 9,1 %, Yashnobod – 7,5 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
Jami	12 071	18 252
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	201	190
Sanoat	2 268	2 790
Qurilish	1 439	1 736
Savdo	3 407	7 742
Tashish va saqlash	543	615
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	1 041	1 213
Axborot va aloqa	641	654
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	175	253
Boshqa faoliyat turlari	2 356	3 059

Ma'lumot uchun: 2019-yilning yanvar–dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i:

savdo – 7 742 ta;

sanoat – 2 790 ta;

qurilish – 1 736 ta;

yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 1 213 ta;

aloqa va axborot – 654 ta.


**Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va
mikrofirmalar, birlikda**

	2018-yil yanvar–dekabr	2019-yil yanvar–dekabr	Farqi (+-)
Uchtepa	985	2 195	1 210
Olmazor	1 208	2 041	833
Chilonzor	1 474	2 279	805
Mirobod	1 089	1 661	572
Mirzo Ulug'bek	1 433	1 983	550
Yunusobod	1 652	2 121	469
Shayxontohur	1 226	1 672	446
Yashnobod	949	1 380	431
Bektemir	248	583	335
Sergeli	724	1 048	324
Yakkasaroy	1 083	1 289	206

2019-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p salmog'i Chilonzor – 2 279 ta, Uchtepa – 2 195 ta, Yunusobod – 2 121 ta, Olmazor tumanida bu ko'rsatkich 2 041 taga yetgan. Mirzo Ulug'bek tumanida 1 983 ta, Shayxontohur tumanida 1 672 ta, Mirobod tumanida 1 661 tani ko'rsatdi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda





Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda*)



2019-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) Tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 57,0 birlik, Bektemir tumanida 52,3 birlik, Mirobod tumanida 44,6 birlik. Chilonzor tumanida bu ko'rsatkich 38,3 birlikka yetgan. Mirzo Ulug'bek tumanida 29,8 birlik, Yunusobod tumanida 28,2 birlik, Uchtepa tumanida 25,6 birlikni tashkil etgan. Shayxontohur tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 20,4 birlikga to'g'ri keldi.

* *Kichik korxonalar, mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik
tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*

2019 yil yanvar - dekabr

57,0

Yakkasaroy

25,6

Uchtepa

52,3

Bektemir

23,6

Sergeli

44,6

Mirobod

22,5

Yashnobod

38,3

Chilonzor

21,9

Olmazor

29,8

Mirzo Ulug'bek

20,4

Shayxontohur

28,2

Yunusobod

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 57,0 birlik, Bektemir tumanida 52,3 birlik, Mirobod tumanida 44,6 birlik. Chilonzor tumaning ko'rsatkichi 38,3 birlikka yetdi. Mirzo Ulug'bek tumani 29,8 birlik, Yunusobod tumani 28,2 birlik, Uchtepa tumani esa 25,6 birlikni tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni bo'yicha ko'rsatkichi (har 1000 aholiga, birlikda)

• **Eng yuqori ko'rsatkich** Yakkasaroy tumani
57,0 birlik;

• **O'rtacha ko'rsatkich** Yunusobod tumani
28,2 birlik;

• **Eng past ko'rsatkich** Shayxontohur tumani
20,4 birlikni;


Bundan ko'rinib turibdiki, Yakkasaroy tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Shayxontohur tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayish dinamikasi, yanvar–dekabr holatiga, %


2019-yilning yanvar – dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 60,4 %ni tashkil qildi. (2018-yilning yanvar – dekabr oylarida 65,1 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.


2019



2018



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan, % da)



**Kichik tadbirkorlikning tumanlar kesimida iqtisodiy
faoliyat turlari bo`yicha ulushi
2019-yil yanvar–dekabr uchun, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent sh.	67,4	72,5	46,0	46,6
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	87,6	96,4	80,8	67,7
Bektemir	71,7	43,7	92,3	89,1
Yunusobod	88,7	59,3	30,3	37,8
Mirzo Ulug`bek	41,9	68,8	59,4	47,2
Mirobod	28,5	56,4	28,9	29,3
Shayxontohur	51,8	62,2	47,2	65,8
Olmazor	90,3	91,7	66,0	66,5
Sergeli	71,9	94,6	46,9	22,2
Yakkasaroy	88,0	92,2	70,0	88,4
Yashnobod	78,1	84,4	34,1	53,4
Chilonzor	87,8	68,6	48,3	19,3

Sanoatda kichik tadbirkorlikda tumanlar kesimida eng yuqori ulush Olmazor (90,3 %), Yunusobod (88,7 %) va Yakkasaroy (88,0 %) da qayd etildi.


Qurilishda – Uchtepa (96,4 %), Sergeli (94,6 %), Yakkasaroy (92,2 %) va Olmazor (91,7 %) tumanlari tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Bektemir (92,3 %), Uchtepa (80,8 %), Yakkasaroy (70,0 %), Olmazor (66,0 %) va Mirzo Ulug`bek (59,4 %) tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Bektemir (89,1 %), Yakkasaroy (88,4 %), Uchtepa (67,7 %) va Olmazor (66,5 %) tumanlari tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-yil yanvar - dekabr oylaridagi holati






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan tumanlar kesimida amalga oshirilgan eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019-yil yanvar–dekabr oylari holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushini Bektemir – 88,7 %, Chilonzor – 85,8 %, Uchtepa – 83,0 %, Yashnobod – 75,4 %, Yakkasaroy – 68,8 %, Olmazor – 49,6 %, Shayxontohur – 32,4 % va Sergeli – 31,5 % ni, eng past ko'rsatkich Mirobod tumani – 2,9 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan import (tovar, xizmatlar)ning, jami import hajmidagi ulushi, %



2019-yil yanvar–dekabr holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning jami importdagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumani – 92,6 %, Yakkasaroy tumani – 79,2 %, Sergeli tumani – 76,8 %, Olmazor – 74,1 %, Yashnobod tumani – 73,9 %, Bektemir tumanida – 72,8 % va Chilonzor tumanida – 69,4 %ga yetdi. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – 33,1 %, Shayxontohur tumani – 45,0 % va Mirzo Ulug'bek tumanida – 49,1 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar–dekabr oylarida tumanlar bo`yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish hajmi




Tumanlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yashnobod (5 583,9 mlrd. so`m), Olmazor (4 664,2 mlrd. so`m), Bektemir (4 333,7 mlrd. so`m), Yunusobod (4 074,0 mlrd. so`m) va Sergeli (3 524,0 mlrd. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Mirobod tumanining (2 333,5 mlrd. so`m) sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.






2019-yil yanvar–dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar bo'yicha ulushi, %



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (90,3 %), Yunusobod tumani (88,7 %), Yakkasaroy tumani (88,0 %), Chilonzor tumani (87,8 %), Uchtepa tumani (87,6 %), Yashnobod tumani (78,1 %) va Sergeli tumani (71,9 %) tashkil etdi. Mirobod tumanida (28,5 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




2019-yilning yanvar–dekabr oylarida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o`sinh sur`ati



Tumanlar kesimida eng ko'p chakana tovar aylanmasi hajmi Yunusobod (3 650,1 mlrd. so'm), Chilonzor (3 388,0 mlrd. so'm), Uchtepa (3 250,7 mlrd. so'm), Shayxontohur (3 195,7 mlrd. so'm), Bektemir (2 850,9 mlrd. so'm), va Sergeli (2 158,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2019-yilning yanvar–dekabr oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yakkasaroy (1 370,4 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (1 353,3 mlrd. so'm), Mirobod (1 346,2 mlrd. so'm), Olmazor (1 136,5 mlrd. so'm), Yunusobod (1 135,1 mlrd. so'm), Yashnobod (1 057,4 mlrd. so'm), Sergeli (1 039,9 mlrd. so'm) hamda Shayxontohur (1 028,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





2019-yilning yanvar–dekabr oylarida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`sish sur`ati




Tumanlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Mirzo Ulug'bek (3 664,8 mlrd. so'm), Yunusobod (3 509,8 mlrd. so'm), Shayxontohur (3 422,3 mlrd. so'm), Chilonzor (3 227,1 mlrd. so'm), Mirobod (3 053,0 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2 775,6 mlrd. so'm) va Uchtepa (2 425,5 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **3 651** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2019-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,3 % (12 ta), sanoatda – 20,4 % (745 ta), qurilishda – 7,1 % (261 ta), savdoda – 25,9 % (944 ta), xizmatlar sohasida – 46,3 % (1 691 ta).

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.


2019-yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma
va kichik korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, %



2019-yil **IV** choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi. Unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 273 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalarini – 44 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 16,1 %), qurilish – 26 ta (9,5 %), savdo – 112 ta (41,0 %) va xizmatlar – 88 ta (32,3%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 3 ta (1,1 %).



2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



2019-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, %

